

O'SMIR YOSHDAGI QIZLAR UST KIYIMLARINING TASHQI KO'RINISHI BADIY HUSUSIYATLARI

Yaxyojonova Mohidil Husan qizi

Farg'onan davlat texnika univeristeti

Yengil sanoat muhandisligi kafedrasi assistenti

E-mail: yaxyojonovam@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezis o'smir yoshdagagi qizlar paltosi uning tashqi ko'rinishi, konstruksiyasi, gazlamasi va qulayligi, belgilangan model uchun materiallar tanlash, texnologik jarayonlarini yoritib berish. Tanlangan materialning modelga mos kelishi, uning bezirimligi, rangining mosligi haqida.*

Kalit so'zlar: *Palto, o'smir yoshdagagi qizlar, konstruksiya, drap matosi, model.*

Bugungi kunda yosh avlod uchun mo'ljallangan kiyimlarni loyihalashda estetik ko'rinish bilan bir qatorda qulaylik, funksionallik va gigiyenik talablarining uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'smir yoshdagagi qizlar uchun tikiladigan paltolar nafaqat ob-havo sharoitlariga mos bo'lishi, balki ularning yoshiga, harakat faolligiga, moda talablariga ham javob berishi kerak. Qishki kiyimlar ichida palto eng zarur va ommaviy kiyim turi hisoblanadi. Paltolar turli gazlama, fason, siluet, detallar va bezaklar bilan boyitilib, har yili o'zgarib borayotgan moda yo'nalishlariga mos ravishda takomillashtiriladi. Maqolada aynan maktab yoshidagi qizlar uchun mo'ljallangan drap matosidan tikiladigan, bezakli va amaliy jihatdan qulay bo'lgan paltolar modeli tahlil qilinadi.

O'smir yoshdagagi qizlar paltosi, model asosan qish uchun mo'ljallangan. Bu modeldagagi palto drap matosidan tayyorlangan bo'lib, cho'ntakli, etagi kengaygan qaytarma yoqali paltodir. Bu model maktab yoshidagi qizlarga mo'ljallanganligi sababli yorqin rangli va turli xil naqshli drap matosidan tayyorlanadi [1]. Dastavval paltoning konstruksiysi quriladi, qurilgan konstruksiya asosida andoza olinadi va andozalar gazlama ustiga joylashtirib bichiladi. Buyumlarni konstruksiyalash jarayonining mohiyati o'chovlarni va buyum detollarining shaklini aniqlab hamda ularni bir tekislikda yoyib joylashtirishni belgilaydi. Drap matosining bichilishi, fasonlari turli xil bo'lganligi uchun ham chiziqlari bir xilda bo'lmaydi. Yangi modellarni ishlab chiqish uchun tipik gavdaga mo'ljallangan kiyim detallari, chok haqlari,

vitachkalarining joylanishi, buyumning gavdaga mos tushishi, gavda tuzilishi, matoning xususiyatlari va sifati e'tiborga olinishi kerak. Drap matosidan buyumlar kiyilganda yuzani hosil qiladi, shuning uchun ularni tekislikda yoyib o'lhash unchalik qiyin emas. Bu jarayonning murakkabligi yana shundaki, konstruktorga yangi modelning aniq o'lchamlari hali noma'lum bo'ladi. Chunki faqatgina modelning eskizi va gavdaning o'lchovlarigina ma'lum bo'ladi[2].

O'smir yoshdagi qizlar uchun mo'ljallangan kiyimlarni yaratishda ergonomik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Bu yoshda bolalar jismonan tez o'sadi, tananing nisbati o'zgarib boradi, shuningdek, harakat faolligi yuqori bo'ladi. Shuning uchun palto konstruktsiyasi shunday qurilishi kerakki, u harakatga to'siq bo'lmasligi, qulaylik yaratishi, ayni vaqtda chiroyli ko'rinishda bo'lishi zarur. Qomatga to'g'ri tushgan, yeng va o'mizlari ergonomik hisoblangan paltolar o'quvchilar uchun nafaqat amaliy, balki sog'liq uchun ham foydalidir [3].

Belgilangan model uchun materiallar tanlash, texnologik jarayonda asosiy bosqich bo'lib hisoblanadi. Chunki tanlangan materialning modelga mos kelishi, uning bejirimligi, rangining mosligi, ishlab chiqilgan mahsulotning iste'molchi talabini qondiruvchi muhim omillaridan biridir. Paltolar turli-tuman modelda to'g'ri, nim yopishgan va trapetsiyasimon siluetda bo'ladi. Tugma qadash usuli adip kengligiga ko'ra bir va ikki bortli paltolarga bo'linib, taqilmalar tugma va izmaga, knopkaga, molniyali lentaga qadaladi.

O'smir yoshdagi qizlar uchun mo'ljallangan kiyimlarni yaratishda ergonomik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Bu yoshda bolalar jismonan tez o'sadi, tananing nisbati o'zgarib boradi, shuningdek, harakat faolligi yuqori bo'ladi. Shuning uchun palto konstruktsiyasi shunday qurilishi kerakki, u harakatga to'siq bo'lmasligi, qulaylik yaratishi, ayni vaqtda chiroyli ko'rinishda bo'lishi zarur. Qomatga to'g'ri tushgan, yeng va o'mizlari ergonomik hisoblangan paltolar o'quvchilar uchun nafaqat amaliy, balki sog'liq uchun ham foydalidir [4].

Paltolar-o'tqazma, reglan, old va ort bo'lak bilan yaxlit yengli qilib ham loyihalandi. Yeng uchlariga qirqma, qaytarma manjetli, ochiq, yopiq qirqimli, mo'yna bilan ishlov beriladi. Tanlangan modelga qarab qoplama, qirqma qopqoqli, listochkali, ramkali cho'ntaklar ishlanadi va ular bezak va biriktiruvchi choklarda tikiladi. Palto astari etak bilan biriktirib tikiladi yoki astar etagiga ishlov berilib ochiq qoldiriladi. Yoqalar qaytarmali, tik, kapyushonli qilib ishlanadi. Ba'zi modeldagagi paltolar yoqasiz bo'ladi. Palto uzunligi moda yo'nalishiga qarab uzun, kalta tanlanadi. Paltodagi furnituralar

nafaqat funksional, balki dekorativ vazifalarni bajaradi: ya'ni ularga turli razmer va shakildagi tugmalar, lentalar, knopkalar, ilmoqlar, izmalar, shuningdek, plastmassa, yog'och, charm, zamsh bezak elementlari kiradi. Tikuvchilik sanoatida ishlov berilish usuliga va eksplutatsiya talablariga qarab paltolik gazlamalar: yuza zichligi, chidamliligi, yirtilish kuchi, havo o'tkazuvchanligi, kirishmasligi, shuningdek yaxshi issiqlik saqlashi rangi, mustaqilligi, suv va yorug'lik ta'siriga chidamliligi kabi talablarga javob beradi. Astarlik uchun yuza qalinligi 100-140 g/m viskoza tolali, yuza qalinligi 80-110 g/m bo'lgan kapron tolali, kapron ipli trikotaj polotnolaridan foydalaniladi. Isituvchi qatlama sifatida: 45-85% jun tolali, marli asosli 45% jun qo'shilgan vatindan foydalaniladi. Palto umuman hech qachon modadan chiqmaydigan assortiment turidir, silueti, ranglari va gazlamalari o'zgarib turadi xolos, u barcha ayollar uchun kuzgi qishki garderobining tarkibiy qismidir [5].

Shuni aytish mumkinki, qish mavsumi uchun juda qulay kiyim hisoblanadi palto. Uni issiqni yaxshi saqlashi yaxshi, bichimi, tashqi ko'rinishi ham juda chiroyli va bejirim. O'smir yoshdagagi qizlar uchun juda mos. Inson dididan kelib chiqib kiyim yaratish ham o'ziga yarasha maxorat talab qiladi. Paltoning bichimi va gazlamasi juda yaxshi tanlangan [6].

Xulosa qilib aytganda, o'smir yoshdagagi qizlar uchun mo'ljallangan paltolarni loyihalash jarayoni puxta o'ylangan konstruktsiya, sifatli material tanlovi va qulay dizayn elementlariga asoslanadi. Bu yoshdagagi qizlar faol harakatda bo'lishi sababli, paltoning shakli, og'irligi, issiqliknini saqlash xususiyati va ergonomik jihatlari asosiy mezon sifatida qaraladi. Drap matosidan tikilgan palto o'zining mustahkamligi, issiqliknini ushlab turish xususiyati va tashqi ko'rinishdagagi jozibadorligi bilan ajralib turadi. Modeldagagi tugmalar, yoqalar, cho'ntaklar va boshqa bezak elementlari esa paltoga nafislik va o'ziga xoslik baxsh etadi. Palto — bu faqat himoya vositasi emas, balki yosh qizlarning didi va shaxsiyatini ifodalovchi muhim kiyim turidir. Shuning uchun bunday kiyimlarni loyihalashda har bir detallarga e'tiborli va mas'uliyatli yondashish lozim.

Adabiyotlar

- [1]. Tursumatova Shaxlo Samiyevna, & Mamatqulova Saida Raxmatovna. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(05), 1–10.

[2].Raxmatovna.M.S.(2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. International Journal of Advance Scientific Research.2(03).16-21.

[3].Raxmatovna.M.S.(2022).Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knitting production; basic raw materials, their composition and properties.Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5,May,2022.7

[4]. Raxmatovna.M.S.(2021). The description of perspective fashion trends in men's clothing. Innovative Technological:Methodical Research Journal,2(10),15-20.

[5].Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. The American Journal of Engineering and Technology, 3(9), 18-23.

[6]. Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).